

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

PULATOVA VIKTORIYA ISKANDEROVNA

**ZAMONAVIY BRITANIYA ADABIYOTIDA ANTIUTOPIYA JANRI
TIPOLOGIYASI**

10.00.04 –Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of
Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences**

Pulatova Viktoriya Iskanderovna

Zamonaviy Britaniya adabiyotida antiutopiya janri tipologiyasi..... 3

Пулатова Виктория Искандеровна

Типология жанра антиутопии в современной британской литературе 29

Pulatova Viktoriya Iskanderovna

Typology of dystopian genre in modern British literature 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

PULATOVA VIKTORIYA ISKANDEROVNA

**ZAMONAVIY BRITANIYA ADABIYOTIDA ANTIUTOPIYA JANRI
TIPOLOGIYASI**

10.00.04 –Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.2.PhD/Fil1769 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nuu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nizamova Munira Nizamovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Pardayeva Zulfia Jurayevna
filologiya fanlari doktori, professor

Lixodziyevskiy Anatoliy Stepanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc03/30.12.2019.Fil.01/10 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____ soat __dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko‘chasi, 400-uy. Tel.: (99871) 246-08-62, faks: (99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz). O‘zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti (2-qavat, 203-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko‘chasi, 400-uy. Tel: (99871) 246-08-62; faks: (99871) 246-65-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «__» _____dagi __raqamli reyestr bayonnomasi).

I.A.Siddikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Sh.O.Nazirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.n., dotsent

S.E.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida antiutopiya janri ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda, chunki u inson hayoti bilan bog‘liq eng keskin muammolarni o‘z ichiga oladi. Uyg‘onish davrida paydo bo‘lgach, antiutopik elementlar Britaniya adabiyotida J.Svift, G.Uells, E.M.Forster asarlarida rivojlandi. XX asrning birinchi yarmida E.Zamyatin, O.Haksli va J.Oruellning romanlari yaratilishi antiutopiyaning o‘zining tipik xususiyatlari bilan janr sifatida tasdiqladi. Zamonaviy asarlarda ilmiy-texnik taraqqiyotning so‘nggi yutuqlari, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy, ekologik vaziyatlar refleksiyasi mavjudligi ularni tadqiq etishning dolzarb va zarurligini belgilaydi.

Dunyo adabiyotshunosligida mavzuning dolzarbligi adabiyotchilarning antiutopiya janriga katta e‘tibor berishiga qaramasdan, bu boradagi ko‘plab masalalar yetarlicha o‘rganilmayotgani bilan ham bog‘liq. Xususan, tipologiya masalasi: jahon adabiyotshunoslik hamjamiyati utopiya tipologiyasining keng ko‘lamli variantlarini taqdim etadi; antiutopik (ayniqsa, Amerika) asarlarining ingliz tilidagi original tipologiyalari mavjud, ammo rusiyzabon adabiyotshunoslikda antiutopiya janrining tipologiyasini (asosan, klassik matnlar negizida) shakllantirish uchun bir necha urinishlarni qayd etish mumkin. Bugungi kunga qadar Buyuk Britaniya adabiyotida XX asr oxiri – XXI asr boshlarida antiutopik asarlar (F.D.Jeyms, D.Mitchell, K.Isiguro, B.Elton va boshqalar) rusiyzabon adabiyotshunosligida tipologiya jihatidan maxsus o‘rganilmagan.

O‘zbekiston adabiyotshunoslik fanida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi oxirgi yillarda XX asr antiutopiya janridagi asarlarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishi bilan bog‘liq¹. Bundan tashqari, mazkur tadqiqot mamlakatimiz adabiyotshunos olimlarining O‘zbekiston adabiyotida kichik janrlarda yaratilgan (S.Aflotuniy, X.Do‘stmuhammad asarlari, R.Rahmat, U.Hamdani, N.Eshonqul hikoyalari) antiutopik asarlari misolida janr tipologiyasini yanada izchilroq tadqiq etish imkonini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017-yil 20-apreldagi № PQ 2909-sonli va «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirok etishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2018-yil 5-iyundagi №PP-3775-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi №PF-6108-sonli «Ta‘lim va tarbiya sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ««O‘zbekiston – 2030» Strategiyasi to‘g‘risida»gi 2023-yil 11-

¹ Oruell J. 1984 [Matn]: roman; K.Baxriyev tarjimasi. – T.: NIHOL, 2020. – 296 b.; Haksli O. Ajib yangi dunyo [Matn]: roman; R.O‘zturk tarjimasi. – T.: NIHOL, 2021. – 258 b.; Byorjess E. 1985 [Matn]: roman; S.Salimov tarjimasi. – T.: Zabardad Media, 2021. – 352 b.

sentyabrdagi №PF-158-sonli farmonida, shuningdek, «Fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida»gi 2019-yil 29-oktyabrdagi №URQ-576-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonunida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi «2020-2025-yillarda kitob mutolaasini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 781-sonli qarorida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi².

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi ilm-fan va texnologiyasini rivojlantirishning: «Axborot jamiyati va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish bo‘yicha innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari»³ ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida antiutopiya janrining nazariy jihatlarini ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, antiutopiyaning genezisi va rivojlanishi O.A.Pavlova, B.A.Lanin, E.Yu.Kolomiitseva, O.V.Lazarenko, A.N.Vorobyeva, A.F.Lyubimova, Yu.L.Latinina, A.V.Timofeyeva, M.I.Shadurskiy, Ch.Uolsh, M.R.Hillegas, L.T.Sarjent, A.L.Morton, G.Kleys, F.Vieyra, E.Yu.Kozmina, N.L.Komleva, A.V.Kuznetsova, D.S.Solobutolarning asarlarida ko‘rib chiqilgan⁴.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi № PQ 2909-sonli farmoni URL: <https://lex.uz/docs/3171587>; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirok etishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi № PP-37754-sonli farmoni URL: <https://lex.uz/docs/3765584>; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmoni URL: <https://lex.uz/docs/4312783>; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PF-6108-sonli «Ta‘lim va tarbiya sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni URL: <https://lex.uz/docs/5086015>; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «“O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida»gi 2023-yil 11-sentyabrdagi №PF-158-sonli farmoni URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>; «Fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida»gi №URQ-576-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonuni URL: <https://lex.uz/docs/4571492>; «O‘zbekiston rivojlanishining yangi davrida fan va ta‘lim»; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2020-2025-yillarda kitob mutolaasini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 781-sonli qarori URL: <https://lex.uz/docs/5160827/>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida»gi 2022-yil 28-yanvardagi №PF-60-sonli farmoni URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>

⁴ Павлова О.А. Русская литературная утопия 1900-1920-х гг. в контексте отечественной культуры. Автореф. дисс.... д-ра филол. н. – Волгоград: Волгоградское научное издательство, 2006. – 45 с.; Ланин Б.А. Русская литературная антиутопия XX в. Дис ... д-ра филол. н. – М., 1993. – 350 с. // URL: <https://www.dissercat.com/content/russkaya-literaturnaya-antiutopiya-xx-v;> Коломийцева Е.Ю. Проблемы изучения литературной антиутопии // Вестн. Ставропол. гос. пед. ун-та. Социально-гуманит. Науки, 1998. Вып. 14. – С. 98-102; Лазаренко О.В. Русская литературная антиутопия 1900-х – первой половины 1930-х годов: Проблемы жанра. Дис. ... канд. филол. н. – Воронеж, 1997. – 245 с.; Воробьева А.Н. Русская антиутопия XX – начала XXI веков в контексте мировой антиутопии. Автореф. дис. ... д-ра филол. н. – Саратов: Сарат. гос. ун-т им. Н.Г. Чернышевского, 2009. – 49 с.; Любимова А.Ф. Утопия и антиутопия: опыт жанровых дефиниций // Традиции и взаимодействия в зарубежных литературах. – Пермь: Перм. гос. ун-т, 1994. – С. 92-98; Латынина Ю.Л. Литературные истоки антиутопического жанра. Автореф. дисс. ...канд. филол. н. – М., 1992. – 21 с.; Тимофеева А.В. Жанровое своеобразие романа-антиутопии в русской литературе 60-80 годов XX века. Автореф. дис. ...канд. филол. н. – М., 1995. – 20 с.; Шадурский М.И. Литературная утопия от Мора до Хаксли: Проблемы жанровой поэтики и семиосферы. Обретение острова. – М: Издательство ЛКИ, 2007. – 160 с.; Walsh Ch. From Utopia to Nightmare. – London, Bles, 1962. – 190 p.; Hillegas M.R. The Future as Nightmare: H.G.Wells and the Anti-utopians // M.R.Hillegas. – NY: OUP, 1967. – 200 p.; Sargent L.T. The Three Faces of Utopianism Revisited // Utopian Studies, 1994. Vol. 5. no. 1. – P. 1-37; Morton

O.Haksli, J.Oruellning «janrning klassik namunalari» sifatida belgilangan antiutopiyalarining xususiyatlari⁵, V.A.Chalikova, A.M.Zverev, R.A.Rodnyanskaya va I.B.Galtseva, Yu.A.Borisenko, S.G.Shishkina, O.V.Shishkina, I.D.Tuzovskiy, E.O.Nurmuxamedova, D.Fokkema, T.Moylan, T.N.Klimenko va boshqalar ishlarida tizimli tahlil qilindi⁶.

XX asrning ikkinchi yarmi va oxiridagi Britaniya antiutopik asarlarining ayrim jihatlarini L.F.Xabibullina, O.I.Serdyukova va Yu.A.Jadanov, S.G.Shishkina, G.S.Andreyev, S.Brey, M.M.Lisboa, T.E.Feyrchayld va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan⁷.

XXI asr boshlarida Britaniya antiutopiyasi V.G.Novikova, R.A.Fayzullina, G.I.Lushnikova va T.Yu.Osadchaya. V.G.Minina, P.O'Donnell, R.Bredford, A.Banerji, X.Makinal, G.Kleys, Y.Sun, J.Stenseke, O.P.Sahu, M.Karmakar, A.Parkes, P.Oleksak, C.Irr, R.Iglstoun va boshqalarning o'rganish obyektiga

A.L. The English utopia. – London: Lawrence & Wishart, 1952. – 230 p.; Claeys G. The origins of dystopia: Wells, Huxley and Orwell // The Cambridge companion to utopian literature. Ed. by G.Claeys. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010; Vieira F. The concept of utopia // The Cambridge companion to utopian literature. Ed. by G.Claeys. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 3-27; Козьмина Е.Ю. Поэтика романа-антиутопии (на материале русской литературы XX века). Дисс.... канд. филол. н. – М., 2005. – 222 с.; Комлева Н.Л. Антиутопическая традиция в американской прозе 1980-х гг.: романы «Берег москитов» и «О-Зона» П.Теру. Дисс.... канд. филол. н. – Саранск, 2007. – 207 с.; Кузнецова А.В. Генезис жанров утопии и антиутопии в английской литературе XX века // Проблемы истории, филологии, культуры, 2012. – № 2 (36). – С. 248-264; Солобуто Д.С. Антиутопия: эволюция и особенности жанра // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки, 2022. Вып. 3 (858). – С. 142-149. DOI: 10.52070/2542-2197_2022_3_858_142.

⁵ Misol uchun, Андреев Г.С. Проблема свободы в британской антиутопии. Дис. ... канд. филос. н. – СПб., 2020. – 304 с.

⁶ Чаликова В.А. Утопия рождается из утопии. Эссе разных лет. – Лондон: Overseas Publications Interchange Ltd, 1992. – 107 с.; Зверев А. «Когда пробьет последний час природы...» Антиутопия. XX век / А.Зверев // Вопросы литературы. – М., 1989. – № 1. – С. 26-69; Гальцева Р.А., Роднянская И.Б. Помеха – человек: Опыт века в зеркале антиутопии // Новый мир. – М., 1998. – № 12. – С. 217-230; Борисенко Ю.А. Риторика власти и поэтика любви в романах-антиутопиях первой половины XX века (Дж.Оруэлл, О.Хаксли, Е.Замятин). Дис. ... канд. филол. н. – Ижевск, 2004. – 190 с.; Шишкина С.Г. Истоки и трансформации жанра литературной антиутопии в XX в. – Иваново: Ивановский гос. химико-технологический ун-т, 2009. – 230 с.; Шишкина О.В. Пространственно-аудиальный код английского романа-антиутопии (на материале романов У.Голдинга «Повелитель мух», Дж.Оруэлла «1984», О.Хаксли «Дивный новый мир»). – М., 2019. – 164 с.; Тузовский И.Д. Светлое завтра? Антиутопия футурологии и футурология антиутопий / И.Д.Тузовский; Челяб. гос. акад. культуры и искусств. – Челябинск, 2009. – 312 с.; Нурмухамедова Е.О. Эволюция утопических взглядов британских писателей XX в. Дисс. ...канд. филол. н. – М., 1992. – 163 с.; Fokkema D. Perfect Worlds: Utopian Fiction in China and the West. – Amsterdam: Amsterdam University Press, 2011. – 448 p. URL: <http://www.jstor.org/stable/j.ctt46mwnv>; Moylan T. Scraps of the untainted sky: Science fiction, utopia, dystopia. – Routledge, 2018. – 386 p.; Клименко Т.Н. Типы и текстообразующие функции иронических контекстов (на материале романов-антиутопий). Автореф. дис. ... д-ра филол. н. – СПб., 2008. – 27 с.

⁷ Хабибуллина Л.Ф. Антиутопия в творчестве Энтони Берджесса. Автореф. дисс.... канд. филол. н. – Нижний Новгород, 1994. – 16 с.; Сердюкова О.И., Жаданов Ю.А. Роль искусственного языка в антиутопии Энтони Бёрджесса «Механический апельсин» // Мировая литература на перекрестье культур и цивилизаций, 2011. – С. 65-73; Шишкина С.Г. Образ истории в постмодернистской литературной антиутопии (Дж.Барнс, П.Акройд) // Вестник гуманитарного факультета ИГХТУ, 2006. Вып. 1. – С. 196-202; Андреев Г.С. Проблема свободы в британской антиутопии. Дис. ... канд. филос. н. – СПб., 2020. – 304 с.; Bray S. «Where Does My Hope Come From?» P.D.James's The Children of Men (1992) as a Christian Dystopia in the Context of the Late 20th Century Demographic Crisis // Sillages critiques [Online], 32 | 2022. DOI: <https://doi.org/10.4000/sillagescritiques.13028>; Lisboa M.M. The end of the world: Apocalypse and its aftermath in Western culture. – Open Book Publishers, 2011. – 219 p. DOI 10.11647/OBP.0015; Fairchild T.E. Emotion, Embodiment And the Novel: Word-Frequency Characteristics and Dystopian Masterworks. – 474 p.

aylandi⁸.

O‘zbekiston adabiyotshunoslik fanida ushbu janrning bir necha chizgilarini quyidagi mualliflar ilmiy ishlarida qayd etish mumkin: S.E.Kamilova, G.T.Garipova, O.B.Yuldasheva rus va o‘zbek adabiyotlarida antiutopiyani tadqiq etdilar⁹; M.N.Nizamova va R.Sh.Ahmedov XX asrning II yarmida ingliz va Amerika antiutopiyasini o‘rganish bilan shug‘ullanishgan¹⁰. Ushbu tadqiqotda mamlakatimizda maxsus o‘rganilmagan masalaning ikkinchi tarafini rivojlantirib, asosiy e‘tibor XX asr oxiri – XXI asr boshidagi Britaniya antiutopiyasini tipologik o‘rganishga qaratilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oily ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universiteti rus adabiyotshunosligi kafedrasining «Zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari» ilmiy faoliyat yo‘nalishi asosida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshidagi Britaniya adabiyotida antiutopiya janrining o‘ziga xos xususiyatini va shu asosda uning tipologik variantlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

⁸ Новикова В.Г. Британский социальный роман в эпоху постмодернизма: Монография. – Нижний Новгород: Изд-во ННГУ им. Н.И. Лобачевского, 2013. – 369 с.; O’Donnell P. A Temporary Future: The Fiction of David Mitchell. – London; NY: Bloomsbury, 2015. – 216 p.; Bradford R. The Novel Now: Contemporary British Fiction. – Oxford: Blackwell Pub., 2007. – 259 p.; Morikawa Sh. Kazuo Ishiguro and His View of Life: Idealism, Nostalgia, Fatalism. – 284 p.; Banerjee A. «Just Fabric»: The Becoming Black of the (Post) Human in Kazuo Ishiguro’s Klara and the Sun (2021) // Sillages critiques, 2022. – № 32; Machinal H. Cloud Atlas: From Postmodernity to the Posthuman // David Mitchell: Critical Essays. Ed. by S.Dillon. – UK: Gylphi Limited, 2011. – 272 p.; Claeys G. Dystopia: A Natural History. A Study of Modern Despotism, Its Antecedents, and Its Literary Diffractions. – New York: Oxford University Press, 2017. – 576 p.; Sun Y. Post/Human Perfectibility and the Technological Other in Kazuo Ishiguro’s Klara and the Sun // Critique: Studies in Contemporary Fiction. – Taylor & Francis Ltd, 2022. – P. 1-8 // <https://doi.org/10.1080/00111619.2022.2056429>; Stenseke J. The Morality of Artificial Friends in Ishiguro’s Klara and the Sun // Journal of Science Fiction and Philosophy, 2022. – № 5 // URL: <https://jsfphil.org/volume-5-2022/artificial-friends-in-klara-and-the-sun/>; Sahu O.P., Karmakar M. Disposable culture, posthuman affect, and artificial human in Kazuo Ishiguro’s Klara and the Sun (2021) // AI & Soc (2022) // <https://doi.org/10.1007/s00146-022-01600-1>; Parkes A. Nothing New under the Sun: Planned Obsolescence in Ishiguro's Klara and the Sun // Foreign Literature Studies, 2022. – 44 (1). – P. 13-27; Oleksak P. Dialectics of Utopia And Dystopia In Never Let Me Go By Kazuo Ishiguro // CURRENTS. A Journal of Young English Philology Thought and Review, 2021. Vol. 7-8. – № 22. – P. 115-123; Irr C. Changing the world of feminist demodystopias // Feminism as World Literature. Ed. by R.T.Goodman, 2023. – Ireland: Bloomsbury Publishing Inc., 2023. – P. 41-55; Eaglestone R. Klara and the humans Agency, Hannah Arendt and forgiveness // Kazuo Ishiguro. Ed. by K.Shaw and P.Sloane. – Manchester University Press, 2023. – P. 212-226 // <https://doi.org/10.7765/9781526157546.00018>

⁹ Камилова С.Э. Современный рассказ: содержательные векторы и повествовательные стратегии. – Т.: Fan va texnologiya, 2016. – 280 с.; Камилова С.Э. Рассказ-антиутопия в современной узбекской литературе // Звезда Востока. – № 3. – Т., 2015. – С. 38-40; Камилова С.Э. Современный литературный процесс в Узбекистане // Русский язык и литература в Узбекистане 2019. Материалы научно-практической конференции, посвященной 250-летию со дня рождения И.А.Крылова. – Т., 2019. – С. 75-77; Гарипова Г.Т. Литература Узбекистана (Глава в коллективной монографии) // Мировой литературный процесс XXI века. Коллективная монография (международный проект). – Алматы: ЭдебиетӘлемі, 2016. – С. 137-179; Юлдашева О.Б. Антимир в антиутопии (о повести В.Маканина «Лаз») // Первые Айтматовские чтения. Материалы республиканской научно-практ. конф. – Т.: Национальный университет Узбекистана, 2018. – С. 87-88; Юлдашева О.Б. Элементы антиутопии в рассказе Улугбека Хамдама «Пиала воды» // Вестник НУУз. Филология. – Т., 2018. – № 12. – С. 454-457.

¹⁰ Низамова М.Н. Пути развития литературы Великобритании второй половины XX-начала XXI века. – Т.: НУУз, 2017. – 134 с.; Ахмедов Р.Ш. Жанр антиутопии в современной литературе // Звезда Востока. – № 6. – Т., 2016. – С. 132-134; Ахмедов Р.Ш. Новый взгляд на жанр антиутопии // Звезда Востока. – № 3. – Т., 2020. – С. 107-110.

antiutopiya janrining (nominatsiya muammolari, janr chegaralari, genezisi va h.k.) faoliyati bo'yicha adabiyotshunoslik kontseptsiyalarini tafsiflash va tizimlash; mavjud tadqiqotlar negizida ushbu janr uchun o'ziga xos bo'lgan belgilar majmuasini – uning invariantini (modelini) shakllantirish;

XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshidagi britaniyalik antiutopiya asarlarida tipologik janr belgilarini namoyon etadigan xususiyatlarini tahlil qilish;

XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida Britaniya adabiyotida antiutopiya janrining tipologik turlarini differensatsiyalash.

Tadqiqotning obyekti sifatida zamonaviy Britaniya adabiyotida antiutopiya janriga oid E.Byorjessning («Telba urug'», «1985»), F.Jeymsning («Inson bolasi»), J.Lavgrouvning («Kunlar»), D.Mitchellning («Bulut atlasini»), K.Isiguroning («Klara va Quyosh»), B.Eltonning («Ojiz e'tiqod») antiutopiya janridagi asarlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlarida Britaniya adabiyotida antiutopiya janrining o'ziga xos belgilari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-genetik, qiyosiy, tipologik usullardan, shuningdek, badiiy matnning adabiy tahlili usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

adabiy tushunchalarni tizimlashtirish asosida antiutopiyani quyidagicha ko'rib chiqadigan asarlarni birlashtirgan tor (mikrodarajali) yondashuv: a) mustaqil janr; b) utopiya yoki ilmiy fantastika janr shakli (ikkilamchi janr/subjanr); v) adabiy vosita va keng (makrodarajali) yondashuv, shu jumladan, antiutopiyani anti-janr sifatida yoki janr toifalariga qaramasdan belgilaydigan asarlar aniqlangan;

antiutopiya modelini tashkil etuvchi hokimiyat g'oyasi, totalitar davlat/jamoat mavzusi, erkinlikni cheklash masalasi; motivlar majmuasi, shaxs va tizim ziddiyati kabi g'oyaviy-tematik hamda formal-mazmunli belgilari isbotlangan;

janr poetikasini belgilaydigan zamonaviy antiutopiya romanlarining badiiy xususiyatlari, shu jumladan, matnlarda ikkinchi darajali va mazmunli vazifalarni bajaradigan, shuningdek, ularni janr paradigmasiga moslaydigan adabiy kodning o'ziga xos o'rni asoslangan;

XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlaridagi britaniyalik yozuvchilar ijodida antiutopiya janrining tipologiyasi: 1) klassik matnlarni o'ziga xos anglaydigan antiutopiyalar (Oruellning «1984» antiutopiya asari va Hakslining «Ajab yangi dunyo», «Ajab yangi dunyoga qaytish») – E.Byorjessning «1985» asari va J.Lavgrouvning «Kunlar» asari; 2) demografik antiutopiyalar – E.Byorjessning «Telba urug'», F.D.Jeymsning «Inson bolasi»; 3) «post-insoniy antiutopiyalar» – D.Mitchellning «Bulut atlasini» romani, K.Isiguroning «Klara va Quyosh» romani; 4) kombinatsiyalashgan turi – B.Eltonning «Ojiz e'tiqod» antiutopiya asari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagicha:

eng so'nggi adabiyotchilik tadqiqotlari, ingliz tilidagi ma'lumotnoma manbalarini tahlil qilish asosida antiutopiya janri masalasidagi tadqiqotlarning nazariy bazasi to'ldirilgan;

zamonaviy Britaniya adabiyotining kam o'rganilgan va ilgari tadqiq etilmagan antiutopiya asarlari adabiy tahlilga tortilgan;

antiutopiya janri tipologiyasi variant shakllantirilib, zamonaviy adabiyotda uning turlarining xususiyatlari tahlil qilish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Ishda tadqiqotning tegishli usullarini qo'llash bilan haqiqiyliги bilan belgilanadi; foydalanilayotgan ilmiy-nazariy fikrlarning muvofiqligi; aslyatda yetarlicha darajada katta hajmdagi manbalarni tahlil qilish; amalga oshirilgan adabiyotshunoslik tadqiqotlari manbalarini qo'llanilishi: o'tkazilgan tadqiqot natijalari dissertatsiya ishining nazariy holatlariga muvofiqligi; amaliyotga xulosalar va tavsiyalar joriy etish, olingan natijalarni vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, aniqlangan natijalar zamonaviy Britaniya adabiyotini, antiutopiya janrini o'rganishga muayyan hissa qo'shadi, ulardan tadqiqot amaliyotida foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, «Zamonaviy adabiy jarayon», «Jahon adabiyoti tarixi», «Badiiy matnning adabiy tahlili», «Jahon adabiyotining zamonaviy tendensiyalari» fanlari bo'yicha ma'ruzalar, seminar mashg'ulotlari uchun savol va topshiriqlar, shuningdek, doktorlik va magistrlik dissertatsiyalarni, maqolalar, bitiruv malakaviy va kurs ishlarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

adabiy tushunchalarni tizimlashtirish asosida antiutopiyaning quyidagicha ko'rib chiqadigan asarlarni birlashtirgan tor (mikrodarajali) yondashuv: a) mustaqil janr; b) utopiya yoki ilmiy fantastika janr shakli (ikkilamchi janr/subjanr); v) adabiy vosita va keng (makrodarajali) yondashuv, shu jumladan, antiutopiyaning anti-janr sifatida yoki janr toifalariga qaramasdan belgilaydigan asarlarga oid xulosalardan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida 2012-2013-yillarda bajarilgan Y-1-06-raqamli «Professional tarjimonlarni tayyorlashda sifat nazoratini tashkillashtirishga kompetent yondashuv» amaliy ilmiy tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 4-dekabrda 04/11-8793-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqot materiallari o'zbek yoki rus tillariga tarjima qilinmagan asarlarni hamda ingliz milliy adabiyoti va madaniyatining xususiyatlarini o'rganishda amaliy yordam berdi;

antiutopiya modelini tashkil etuvchi hokimiyat g'oyasi, totalitar davlat/jamoat mavzusi, erkinlikni cheklash masalasi; motivlar majmuasi, shaxs va tizim ziddiyati kabi g'oyaviy-tematik va formal-mazmunli belgilarga oid xulosalardan «Jahon adabiyoti tarixi. XX asr» o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitetining 2023-yil 28-noyabrda 04/11-8581-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, amaliy mashg'ulotlarda jahon adabiyotining asosiy badiiy matnlarini (jumladan, antiutopiyalarni) tahlil qilishda tipologik metoddan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, o'quvchilarni zamonaviy adabiy jarayonda antiutopiya janrining xususiyatlari, o'rni va roli bilan yaxshiroq tanishtirish imkonini berdi hamda ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi;

janr poetikasini belgilaydigan zamonaviy antiutopiya romanlarining (ayniqsa,

K.Isiguro antiutopiya romanlarining) badiiy xususiyatlari va ularning gumanistik kontseptsiyalari o'ziga xos o'rniga oid xulosalardan «O'zbekiston 24» radiokanalida «O'zbekiston yoshlari» dasturini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 2-noyabrdagi 03-09-587-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yozuvchi romanlarining estetik va badiiy ahamiyati to'g'risidagi amaliy xulosalar radio dasturi materiallarini boyitishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda: 8 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanlarida sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 7 ta nashrda to'liq aks etgan, shulardan, 2 ta jamoa monografiyasida, doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika jurnallarida 3 ta; SCOPUS MB va WOSda indekslanadigan jurnalda 1 maqola hamda impakt-faktori yuqori bo'lgan jurnalda 1 maqola.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, 160 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi hamda muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot maqsadi va vazifalari bayon qilingan. Shuningdek, tadqiqotning obyekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko'rsatilgan, olingan natijalarning nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning uch fasldan iborat «**Antiutopiya adabiy muammo sifatida**» deb nomlangan birinchi bobida antiutopiya janriga bag'ishlangan ilmiy va ma'lumotnoma adabiyotlari tahlili keltirilgan.

«Antiutopiyaning nominatsiya va janr chegaralari muammolari» deb nomlangan birinchi faslda ilmiy ma'lumotlar to'plami va tanqidiy ishlar asosida antiutopiya tushunchasiga turli yondashuv usullari o'rganib chiqilgan (6 ta rus tilidagi adabiyotshunoslik ma'lumot nashrlari va ingliz tilidagi 14 ta maxsus manbalar). Rus tilidagi manbalarda «antiutopiya» atamasidan foydalanilgan bo'lsa, ingliz tilidagi ma'lumot manbalarida 1960-yilgacha «antiutopiya» («dystopia») atamasi qo'llanilmagan, keyinchalik utopiya bo'yicha maqolalar doirasida paydo bo'la boshlagan. Faqatgina 90-yillarning o'rtalaridan boshlab ensiklopediyalar va ma'lumotnomalar antiutopiyaga bag'ishlangan mustaqil maqolalarni o'z ichiga ola boshladi. Shunday qilib, ikki atama – antiutopiya va distopiya – o'rganilayotgan janr nominatsiyasining ikkita asosiy usulini ifodalaydi. Ikkala atamaning etimologiyasi o'xshash: antiutopiya – yun. «anti» – qarshi, «utopiya» – utopiya (qadimgi

yunoncha εὖ «yaxshi», ya'ni «yaxshi joy»; boshqa versiya: yunoncha υ – «yo'q»; τόπος – «joy», ya'ni «joy, mavjud bo'lmagan»); distopiya – yun. «yomon joy» (yunoncha δὺς «inkor qilish» + yunoncha τόπος «joy»dan). D.Klat va P.Nikols ta'kidlashicha, «antiutopiya» («dystopia») atamasining qo'llanilishi birinchi marta 1868-yilda parlament nutqida Jon S.Mill tomonidan qayd etilgan bo'lib¹¹, u ushbu atamani «utopiya» so'ziga taqqoslash orqali ijtimoiy taraqqiyotning salbiy tomonlarini tavsiflash uchun ishlatgan¹². Antiutopiya tushunchasi, eng yangi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, birinchi marta XVIII asrning oxirida irlandiyalik shoir Lyuis G.Yangning «Utopiya, yoki Apollonning Oltin kunlari» (1747-1748) noma'lum she'rida paydo bo'lgan bo'lib¹³, uning matnida «dystopia» so'zi kamida ikki marta ishlatilgan bo'lib, unga qaydlarda «baxtsiz mamlakat» («an unhappy country») deb izoh berilgan va utopiyaga qarshi qo'yilgan¹⁴. Adabiy janrning o'zi uchun «antiutopiya» («dystopia») atamasi birinchi marta G.Negli va J.M.Patriklar tomonidan 1952-yilda 1605-yildan – 1947-yilgacha bo'lgan jami yigirma beshta asarni o'z ichiga olgan «Utopiyani qidirib» utopiya antologiyasida qo'llangan¹⁵. Ushbu tadqiqotda rus adabiyotshunosligi an'analariga ko'ra va tahlil qilingan ingliz tilidagi ma'lumot manbalarida qayd etilgan ikkita tushunchaning sinonimligi asosida «antiutopiya» atamasi qo'llaniladi.

Antiutopiya chegaralari muammosini hal qilishning ilmiy yondashuvlari tor (mikrodaraja) va keng (makrodaraja)ga ajratildi. Birinchi guruhga antiutopiyani quyidagicha ko'rib chiqadigan asarlar kiradi: a) mustaqil janr; b) utopiya yoki ilmiy fantastikaning janr shakli (subjanr) yoki janr toifasiga kiritmagan holda ko'rib chiqadilar. Biz antiutopik janrning mustaqilligini, uning o'ziga xos genezisi va barqaror belgilar majmuasining mavjudligini tasdiqlaydigan birinchi yondashuvga amal qilamiz. Shunday qilib, Yu.L.Latininaning fikriga ko'ra, antiutopiya «xayoliy ijtimoiy tartiblarni masxara qiladigan va mavzusi har qanday mafkuraning yolg'onligi bo'lgan, bu dunyoda o'zini o'zi ta'minlaydigan dunyoni talqin qilish tizimiga intilayotgan tavsifning asosiy darajasi mavjudligini e'lon qiluvchi va natijada – dunyoni o'z talqinining o'zini o'zi ta'minlashi bilan mos kelmasa, uni qayta tiklashga undovchi adabiy janrdir»¹⁶. Antiutopiyaning mustaqilligi B.A.Lanin tomonidan tasdiqlangan: «Adabiy antiutopiya asarda mustaqil adabiy janr sifatida qaraladi, ularsiz bugungi kunda rus adabiyoti tarixini tasavvur qilish qiyin»¹⁷. A.F.Lyubimova ham antiutopiyaning asosiy izolyatsiyasini ta'kidlab, uni «XX

¹¹ The Encyclopedia of science fiction. Ed. by J.Clute, P.Nicholls. – N.Y.: St. Martin's Press, 1993. – P. 360.

¹²The Collected Works of John Stuart Mill, Volume XXVIII – Public and Parliamentary Speeches Part I November 1850 - November 1868, ed. John M.Robson and Bruce L.Kinzer. – Toronto: University of Toronto Press, London: Routledge and Kegan Paul, 1988. URL: <https://oll.libertyfund.org/title/kinzer-the-collected-works-of-john-stuart-mill-volume-xxviii-public-and-parliamentary-speeches-part-i>.

¹³ Köster P. Dystopia: an Eighteenth-Century Appearance N&Q, February (1983), 65-6.; Ní Chuanacháin D. Utopianism in eighteenth-century Ireland, 2013. – 275 p.

¹⁴ Budakov V.M. Dystopia: An Earlier Eighteenth Century Use. Notes and Queries, 57 (2010), 86-8. doi:10.1093/notesj/gjp235

¹⁵ Negley G., Patrick J.M. The Quest for Utopia: An Anthology of Imaginary Societies. – NY: Anchor Books, 1952. – P. 298.

¹⁶ Латынина Ю.Л. Литературные истоки антиутопического жанра. Автореф. дисс ...канд. филол. н. – М., 1992. – С. 3.

¹⁷Ланин Б.А. Русская литературная антиутопия XX в. Дис. ... д-ра филол. н. – М., 1993. – 350 с. URL: <https://www.dissercat.com/content/russkaya-literaturnaya-antiutopiya-xx-v>

asrning ijtimoiy-psixologik va falsafiy janri bo‘lib, u insonni totalitar davlatga qarama-qarshi qo‘yadi» deb ataydi¹⁸. V.V.Kostenkova antiutopiyani tor va keng ma‘noda ko‘rib chiqadi: birinchi holda unga «utopiya bilan dialogik va munozarali munosabatlarda bo‘lgan va jamiyat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarining ekstrapolyatsiyasi bo‘lgan salbiy ijtimoiy modelning tavsifini ifodalovchi adabiy janr» deb qaralsa, ikkinchisida – «ong turi va badiiy bashoratning o‘ziga xos usuli bo‘lib, uning maqsadi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, diniy-madaniy va boshqa tushunchalar asosida qurilgan jamiyat rivojlanishining umuminsoniy nuqtayi nazardan qabul qilinmaydigan variantlarini namoyish etishdir»¹⁹.

F.Vieyra, L.T.Sarjent, D.Fokkema, V.A.Chalikova, D.P.Shishkin va boshqalar antiutopiyani katta janr paradigmasiga kiruvchi janr shakli (ikkilamchi yoki subjanr) sifatida o‘rganadilar. Ushbu yo‘nalishning bir oqimi giperjanr sifatida fantastikani ko‘rsatadigan asarlardan iborat (D.Suvin, A.A.Didrov, E.N.Kovtun va boshqalar). Biz L.F.Habibullina, T.A.Chernisheva va G.Kleys tushunchalariga asoslanib, antiutopiya mustaqil janr ekanligiga ishonamiz²⁰. Yana bir yo‘nalish – bu utopiyani antik davrdan (Platon asarlari) kelib chiqqan va jahon madaniyatida muhim rol o‘ynaydigan ko‘p qirrali tushuncha bo‘lgan giperjanr sifatida ko‘rsatadigan ishlar (F.Vieyra, L.T.Sarjent, D.Fokkema, V.A.Chalikova, D.P.Shishkin va boshqalar). V.A.Chalikova utopiya atamasini keng talqin qiladi: «Utopiya – bu o‘zgacha bir bilim-ichki, shubhasiz, empirik tajribaga zid bo‘lgan bilim»²¹. Jahon ilmiy hamjamiyatida utopiyaning ko‘plab ta‘riflari bo‘lganligi tufayli, ishda B.A.Lanin tomonidan taklif etilgan janrning asosiy ta‘rifi ishlatilgan: «UTOPIYA (yunon. u – «yo‘q»; τόπος – «joy», ya‘ni «yo‘q joy»; boshqa tushuntirish: eu – «yaxshilik» va τόπος-joy, ya‘ni «muborak joy») – mavjud bo‘lmagan ideal jamiyat tasviriga asoslangan adabiy janr»²².

Uchinchi yo‘nalish noan‘anaviy janr tuzilmalari qatoriga kiritilgan asarlarni o‘z ichiga oladi. Amerikalik adabiyotshunos, slavyan tillari mutaxassisi G.S.Morson antiutopiyani antijanr deb ta‘riflaydi. E.Yu.Kozmina G.S.Morson kontseptsiyasiga asoslanadi va uni rivojlantiradi: antiutopiya romani nafaqat «antijanr», balki janr gibrididir, ya‘ni bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikkita janr: utopiya va romanning uchrashuvi hamda o‘zaro birlashuvi²³. Ayrim tadqiqotchilar antiutopiyani janr toifasiga qaramasdan ko‘rib chiqadilar, uni keng ma‘noda makrodarajadagi element sifatida talqin qiladilar. L.F.Habibullinaning so‘zlariga ko‘ra, «utopiya (va

¹⁸ Любимова А.Ф. Утопия и антиутопия: опыт жанровых дефиниций // Традиции и взаимодействия в зарубежных литературах. – Пермь: Перм. гос. ун-т, 1994. – С. 92-98.

¹⁹ Костенкова В.В. Антиутопия начала XXI века в динамике жанровых трансформаций. Дис. ... канд. филол. н. – Краснодар, 2019. – С. 40.

²⁰ Хабибуллина Л.Ф. Антиутопия в творчестве Энтони Берджесса. Автореф. дисс.... канд. филол. н. – Нижний Новгород, 1994. – 16 с.; Чернышева Т.А. Природа фантастики. – Иркутск: Изд-во Иркутского университета, 1984. – 336 с. URL: https://royallib.com/read/chernisheva_t/priroda_fantastiki.html; Claeys G. The origins of dystopia: Wells, Huxley and Orwell // The Cambridge companion to utopian literature. Ed. by G.Claeys. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 107-132.

²¹ Чаликова В.А. Утопия рождается из утопии. Эссе разных лет. – Лондон: Overseas Publications Interchange Ltd, 1992. – С. 27.

²² Ланин Б.А. Утопия // Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н.Николюкина. Институт научн. информации по общественным наукам РАН. – М.: НПК «Интелвак», 2001. – С. 1118.

²³ Козьмина Е.Ю. Поэтика романа-антиутопии (на материале русской литературы XX века). Дисс.... канд. филол. н. – М., 2005. – С. 66.

antiutopiya) – bu har qanday adabiy janr doirasida, shuningdek, boshqa shakllarda (deklaratsiya, dasturlar va boshqalar) ifodalanishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar majmui»²⁴. Ushbu tadqiqot doirasida V.V.Kostenkova janrining tor talqini asos sifatida belgilandi, chunki antiutopik asarlarda ekstrapolyatsiya bilan nazarda tutilgan zamonaviy voqealar va ularning kelajak uchun ahamiyatini nisbatan samaraliroq badiiy tushunish taklif etiladi.

«Antiutopiya janri genezisining muammolari» nomli ikkinchi faslda antiutopiyaning xronologik rivojlanish konsepsiyalari ahamiyatga molik namunalarning qisqa ta’rifi bilan birgalikda ko‘rib chiqilgan. Shu munosabat bilan janrning kelib chiqishini aniqlashda to‘rtta yondashuv aniqlangan:

1) XIX-XX asrlar burilishlari – antiutopik kayfiyatning kuchayishiga olib kelgan ijtimoiy va siyosiy hayotdagi global ahamiyatga ega voqealar davri. XIX-XX asr boshlari janrning paydo bo‘lish vaqti sifatida Y.Moichi, G.Kleys, E.Yu.Kozmina, Yu.A.Borisenko va boshqalar tadqiqotlarida tasdiqlangan²⁵;

2) Uyg‘onish davri. B.A.Laninning ta’kidlashicha, «antiutopik tendensiyalar adabiyotda yashirincha pishib, adabiyotning rivojlanishidan so‘ng hayotni qayta tiklashning grotesk va satirik shakllarini rivojlantirdi»²⁶, ammo utopiya paydo bo‘lishidan oldin antiutopiya alohida janrga ajratilishi mumkin emas edi, chunki «parodiya qilish, ustidan kulish va qayta talqin qilish, unga asoslanib yangi, genetik jihatdan bog‘liq, lekin zamonaviy faoliyatida to‘laqonli mustaqil janrni qurish mumkin bo‘lgan kanonning o‘zi yo‘q edi»²⁷. Boshqa tomondan, ayrim tanqidchilar (masalan, Nurmuhamedova E.O.) utopiya uchun kanonik asarda antiutopik elementlar paydo bo‘ladi deb hisoblashadi²⁸;

3) ma’rifatparvarlik davri (L.T.Sarjent, F.Vieyra, O.A.Pavlova va boshqalar²⁹). L.T.Sarjent noma’lum muallifning 1708-yilda yozilgan «Yangi Fonseka oroliga sayohat» epistolyar asarini birinchi antiutopiya deb ataydi³⁰;

²⁴ Хабибуллина Л.Ф. Антиутопия в творчестве Энтони Берджесса. Автореф. дисс.... канд. филол. н. – Нижний Новгород, 1994. – С. 3.

²⁵ Moichi Y. *Losing Utopia? A Study of British and Japanese Utopian Novels in the Face of Postmodern Consciousness.* – Edinburgh: The University of Edinburgh, 2006. – 249 p.; Козьмина Е.Ю. Поэтика романа-антиутопии (на материале русской литературы XX века). Дисс.... канд. филол. н. – М., 2005. – 222 с.; Шишкин Д.П. Многообразие форм утопии в современной культуре. Дисс. ... канд. филос. н. – Ставрополь: Изд-во СГУ, 2009. – 178 с.; Борисенко Ю.А. Риторика власти и поэтика любви в романах-антиутопиях первой половины XX века (Дж.Оруэлл, О.Хаксли, Е.Замятин). Дис. ... канд. филол. н. – Ижевск, 2004. – 190 с.

²⁶ Ланин Б.А. Русская литературная антиутопия XX в. Дис. ... д-ра филол. н. – М., 1993. – 350 с. URL: <https://www.dissercat.com/content/russkaya-literaturnaya-antiutopiya-xx-v>

²⁷ O‘sha yerda.

²⁸ Нурмухамедова Е.О. Эволюция утопических взглядов британских писателей XX в. Дисс. ...канд. филол. н. – М., 1992. – С. 22.

²⁹ Vieira F. *The concept of utopia // The Cambridge companion to utopian literature.* Ed. by G. Claeys. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 3-27; Claeys G. *Dystopia: a Natural History: a Study of Modern Despotism, its antecedents, and its literary diffractions.* – NewYork: Oxford University Press, 2017; Павлова О.А. Русская литературная утопия 1900-1920-х гг. в контексте отечественной культуры. Автореф. дисс.... д-ра филол. н. – Волгоград: Волгоградское научное издательство, 2006. – 45 с.

³⁰ «A voyage to the new island Fonseca, near Barbadoes, with some observations made in cruise among the Leeward Islands». *British and American utopian literature, 1516-1985.* L.T.Sargent. – N.Y.: Garland Publishing, 1988. – P. 18.

4) antik davr (G.R.Negli, Yu.L.Latinina va boshqalar³¹). G.R.Negli antiutopiyaning paydo bo'lishini antik davrga kiritadi va Aristofanning «Xalq uchrashuvidagi ayollar» komediyasi («Ekklesiazousai», miloddan avvalgi 391-yil) antiutopiya elementlarini o'z ichiga olgan birinchi asar deb hisoblaydi. Platonning «Davlat» risolasida bayon etgan g'oyalari tanqid qilish maqsadida yaratilgan³². Muallif Afina jamiyatida utopiyaning – ayol demokratiyasini amalga oshirishga urinishni masxara qiladi, ammo asosiy e'tiborni Platon g'oyalari ustidan satira va polemikaga qaratadi.

Biz f.f.d. B.A.Laninning nuqtayi nazarini baham ko'ramiz, chunki u utopiya va antiutopiya o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini eng aniq aks ettiradi: ikkinchisi birinchisining yo'qligida paydo bo'lishi mumkin emas edi, lekin keyinchalik u alohida o'ziga xos janr sifatida rivojlandi. Antiutopiyaning asosi – utopiya janrining barqarorlashishi tufayli Uyg'onish davridan boshlab matnlarda mavjud bo'lgan elementlarning sintezi. Britaniya adabiyotining muhim namunalarni ko'rib chiqish (J.Xoll, «O'zga va shu bilan birga aynan o'sha dunyo» → J.Svift, «Gulliverning sayohatlari» → G.Uells ijodi) janrning shakllanish yo'lini aniqlashga imkon beradi. J.Xollning «O'zga va shu bilan birga aynan o'sha dunyo» («Mundus Alter et Idem», 1605) asari adabiyotshunoslar tomonidan antiutopik adabiyotining birinchi namunasi sifatida talqin etiladi, chunki u yangi kashf etilgan Janubiy qit'adagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatning juda salbiy tavsifini o'z ichiga oladi³³. XIX-XX asrlarning antiutopik adabiyotlarida takrorlanadigan ikkita element muhim ahamiyatga ega: «mantiqsiz va cheksiz shafqatsizlik bilan mutlaq avtoritar yoki totalitar boshqariluvchi davlat toposi»³⁴. J.Xoll ijodi bilan J.Sviftning «Gulliverning sayohatlari» (1726) romani o'rtasidagi bog'liqlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Svift tasvirlagan mamlakatlarning hech birini chinakam utopik deb ta'riflab bo'lmaydi. Biroq antiutopiyaga eng yaqin mamlakat – Balnibarbi mamlakati va uning poytaxti Lagado. Bu asarda ijtimoiy tizim tanqid obyektiga aylanadi, muallif ushbu tizimning kamchiliklari natijasida aholining sezilarli tabaqalanishini tasvirlaydi³⁵.

Tadqiqot kontekstida janrni shakllantirish jarayonida asosiy bo'g'in bo'lgan va «antiutopik harakat» deb ta'riflangan G.Uellsning dastlabki asarlaridagi antiutopiya tushunchasi muhim ahamiyatga ega³⁶. «Vaqt mashinasi» romanida ijtimoiy tengsizlik mavzusi ochib berilgan, kannibalizm va ogohlik motivlari mavjud. «Doktor Moro oroli» romanida XX asrning eng muhim utopik go'yalaridan biri –

³¹Negley G. Utopian literature: a bibliography with a supplementary listing of works influential in utopian thought. – Lawrence: Regents Press of Kansas, 1977. – 228 p.; Латынина Ю.Л. Литературные истоки антиутопического жанра. Автореф. дисс...канд. филол н. – М., 1992. – 21 с.

³²Negley G. Utopian literature: a bibliography with a supplementary listing of works influential in utopian thought. – Lawrence: Regents Press of Kansas, 1977. – P. 13.

³³Fokkema D. Perfect Worlds: Utopian Fiction in China and the West. – Amsterdam: Amsterdam University Press, 2011. – 448 p. URL: <http://www.jstor.org/stable/j.ctt46mwnv>; Morton A.L. The English utopia. – London: Lawrence & Wishart, 1952. – 230 p.

³⁴Fokkema D. Perfect Worlds: Utopian Fiction in China and the West. – Amsterdam: Amsterdam University Press, 2011. – P. 61.

³⁵Свифт Дж. Путешествия Гулливера. Пер. с англ. А.А.Франковского. – М.: Издательство: АСТ, Ермак, 2003. URL: http://loveread.ec/view_global.php?id=14609

³⁶Claeys G. The origins of dystopia: Wells, Huxley and Orwell // The Cambridge companion to utopian literature. Ed. by G.Claeys. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 112. «dystopian entrée».

tabiatga aralashish orqali ideal odamni yaratish tanqid qilinadi. Shu bilan birga, muallif Qonun va «yaratuvchi» – Morodan qoʻrquv bilan boshqariladigan orolda yashovchi hayvon-odamlarning ibtidoiy jamiyatini tasvirlaydi. Uellsning «The Sleeper Awakes» (1910) romani, asl variantida «Uyqudagi uygʻonganida» («When the Sleeper Wakes», 1899), bizning fikrimizcha, birinchi klassik antiutopiya deb taʼriflanishi mumkin. Asar voqealari XIX asrda boshlanib, XX asrda davom etadi. Harakat davomida utopik ideal va nomukammal voqelikning falsafiy toʻqnashuvi yuzaga keladi, syujet darajasida asosiy qahramon Grehem – utopik dunyo tartibining yagona guvohi – va bu dunyo tartibini yoʻq qiladigan Oq kengash/ Ostrog oʻrtasidagi toʻqnashuv shaklida amalga oshiriladi. Ijtimoiy tengsizlik mavzusi bilan bir qatorda, bu yerda shahar – shahar-davlat, sanoat kelajagi markazi mavzusining kuchayishi, shuningdek, XX asrning ikkinchi yarmi va oxiridagi antiutopiyalar tomonidan meros qilib olingan «oilaviy aloqalarni yoʻq qilish, oilani begonalashtirish va parchalanish motivi» qayd etilgan³⁷. Shunday qilib, Uellsning dastlabki romanlari antiutopiyaning genezisida muhim rol oʻynaydi, zero, ularda birinchi marta antik davrdan beri mavjud boʻlgan barcha antiutopik elementlar birgalikda ishlatilgan va yangilari qoʻshilgan. Shu maʼnoda, biz antiutopiyalar bilimdoni E.I.Zamyatinning fikriga qoʻshilamiz: Uells «adabiy shaklning yangi, oʻziga xos turini yaratdi», bu tur «fantastik romanning badiiy shaklida kiyingan ijtimoiy risolalar»dan iborat boʻlib, «+A –A dan qanchalik farq qilsa, ular utopiyalardan shunchalik farq qiladi»³⁸.

«Antiutopiya janri modelining oʻziga xos xususiyati» nomli uchinchi faslda antiutopiyaning tipologik belgilarining kengaytirilgan variantlarini (S.G.Shishkina, N.L.Komleva, D.Alixojich va S.Jerkovich, G.Kleysning kontseptsiyalari) taklif etadigan adabiyotshunoslik ishlari tavsif etiladi. Misol uchun, D.Alixojich va S.Jerkovichning monografiyalarida janrning ifoda tuzilishi hamda bosh qahramon obrazini tahlil qilish taklif etiladi; G.Kleysning XIX-XX asr janrining tanqidiy asarlari va namunalari ustida olib borgan tadqiqoti janrning funktsional tartibini oʻrganishga qimmatli hissa qoʻshadi, ammo bizning fikrimizcha, muallif siyosiy jihatga haddan tashqari eʼtibor berib, maʼlum darajada unga adabiy antiutopiya poetikasini boʻysundiradi. S.G.Shishkina antropotsentrik printsipga asoslangan XIX-XX asrlar janrining ingliz tilidagi namunalarini asosli tahlil qilishni taklif qiladi; uning fikriga koʻra, antiutopiyaning birinchi va asosiy belgisi «totalitar boshqaruv tizimiga ega boʻlgan davlatning mavjudligidir»³⁹. Ushbu tadqiqotlarni inobatga olgan holda va N.D.Tamarchenkoning janr invarianti toʻgʻrisidagi⁴⁰, M.M.Baxtinning janr strukturasi («tematik tarkib, uslub va kompozitsion

³⁷Шишкина С.Г. Истоки и трансформации жанра литературной антиутопии в XX веке / С.Г.Шишкина; Иван. гос. хим.-технол. ун-т. – Иваново, 2009. – С. 46.

³⁸ Замятин Е.И. Герберт Уэллс. – Петербург: Издательство «Эпоха», 1922. – 47 с. URL: http://az.lib.ru/z/zamjatin_e_i/text_0172.shtml

³⁹ Шишкина С.Г. Истоки и трансформации жанра литературной антиутопии в XX веке / С.Г. Шишкина; Иван. гос. хим.-технол. ун-т. – Иваново, 2009. – С. 86.

